



INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA MUROJAAT BIRLIKLARINING LINGVOKULTUROLOGIK VA LINGVOPOETIK TADQIQI

Mohinur Axmadjonova

Qo‘qon davlat pedagogika instituti tayanch doktaranti
mohinurabduhamidova7@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada o‘zbek va ingliz tillaridagi murojaat birliklarining lingvistik va lingvopoetik jihatlarini qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, o‘zbek tilida murojaat shakllari ijtimoiy ierarxiyaga asoslangan bo‘lib, ko‘proq hurmat va iliqlik ifodalovchi birliklardan iborat. Ingliz tilida esa murojaat shakllari rasmiy va norasmiy uslubga ajratilib, nisbatan standartlashtirilganligi kuzatiladi. Shuningdek, lingvopoetik jihatdan o‘zbek tilidagi murojaat birliklari ko‘proq obrazlilik va emotsionallik xususiyatiga ega bo‘lsa, ingliz tilida ular odatda neytral va konvensional xususiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: lingvistika, murojaat birliklari, lingvokulturologiya, lingvopoetika, obraz, emotsiya, pragmatika, semantika

Annotation: This article presents a comparative analysis of the linguistic and linguopoetic aspects of address forms in Uzbek and English. The research findings indicate that Uzbek address forms are based on social hierarchy and predominantly express respect and warmth. In English, however, address forms are classified into formal and informal styles and tend to be more standardized. From a linguopoetic perspective, Uzbek address forms exhibit greater imagery and emotionality, whereas English ones are generally neutral and conventional.

Keywords: linguistics, address forms, linguistic culture, linguopoetics, imagery, emotion, pragmatics, semantics.

Аннотация: В данной статье проводится сравнительный анализ лингвистических и лингвопоэтических аспектов обращений в узбекском и английском языках. Результаты исследования показывают, что обращения в узбекском языке основаны на социальной иерархии и преимущественно выражают уважение и теплое отношение. В английском языке формы обращения разделяются на формальный и неформальный стили и отличаются большей стандартизованностью. С лингвопоэтической точки зрения узбекские обращения обладают большей образностью и эмоциональностью, тогда как в английском языке они, как правило, нейтральны и конвенциональны.

Ключевые слова: лингвистика, обращения, лингвокультурология, лингвопоэтика, образность, эмоция, прагматика, семантика.

KIRISH

Til insoniyat madaniyatining ajralmas qismi bo‘lib, u nafaqat fikr almashish vositasi, balki ijtimoiy munosabatlarning tartibga solinishi, madaniy qadriyatlarning ifodalanishi va milliy mentalitetning aks etish vositasidir. Shu nuqtai nazardan, murojaat birliklari lingvistik hodisa sifatida muhim pragmatik vosita bo‘lib, insonlar o‘rtasidagi kommunikativ jarayonda ijtimoiy va madaniy omillar bilan bog‘liq holda shakllanadi. Ular nutqiy aktlarning samaradorligini oshirishda, ijtimoiy maqomlar va insonlararo munosabatlarni aniqlashtirishda, hamda ma‘naviy-madaniy merosni yetkazishda muhim rol o‘ynaydi. Murojaat birliklari turli tillarda o‘ziga xos ko‘rinish va tuzilishga ega bo‘lib, ular muloqotning lingvokulturologik va lingvopoetik jihatlarini ochib berishga xizmat qiladi.

Ingliz va o‘zbek tillarida murojaat birlashmalari, ularning lingvokulturologik va lingvopoetik xususiyatlari, til va madaniyat o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar, shuningdek, murojaatlarning ijtimoiy ahamiyati muhim tadqiqot mavzularidir. Ushbu sohalarda olib borilayotgan tadqiqotlar ko‘plab muammolarni hal qilishga yordam beradi.

Ingliz va o‘zbek tillari kabi har xil tizimga mansub bo‘lgan tillar misolida murojaat birliklarining tahlili ularning semantik, pragmatik va stilistik xususiyatlarini o‘rganish imkonini beradi. Ingliz tilida murojaat birliklari ko‘pincha rasmiy va norasmiy kontekstga asoslangan bo‘lsa, o‘zbek tilida ularning tanlanishi ijtimoiy maqom, yoshi kattalarga hurmat, oilaviy yoki jamoaviy munosabatlar kabi omillar bilan bog‘liq. Ushbu maqolada ingliz va o‘zbek tillarida murojaat birliklarining lingvokulturologik va lingvopoetik xususiyatlari yoritib berilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Murojaat birliklari bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ular tilshunoslik, madaniyatshunoslik va sotsiolingvistika fanlari nuqtai nazaridan muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbek va ingliz tillaridagi murojaat birliklari ustida olib borilgan ilmiy ishlar quyidagi jihatlariga e‘tibor qaratgan: Brown va Levinson¹⁷² o‘zlarining *"Politeness: Some Universals in Language Usage"* asarida murojaat birliklarining odob-axloq normalari va muloqot strategiyalariga ta‘sirini o‘rgangan.

G. Yuldashev va boshqalar¹⁷³ o‘zbek tilidagi murojaat birliklarining milliy va an‘anaviy xususiyatlarini tahlil qilgan. Holmes¹⁷⁴ o‘zining *"An Introduction to Sociolinguistics"* kitobida ingliz tilidagi murojaat shakllarining gender, ijtimoiy tabaqa va kontekstga bog‘liq jihatlarini o‘rgangan. O‘zbekistonda chiqarilgan tilshunoslikka oid maqolalar va monografiyalarda murojaat birliklarining pragmatik xususiyatlari keng tahlil qilingan. Ushbu adabiyotlar tahlili natijalari shuni ko‘rsatadiki, murojaat birliklari nafaqat lingvistik balki madaniy kontekstlarda ham muhim rol o‘ynaydi.

¹⁷² Brown, P., & Levinson, S. C. (1987). *Politeness: Some universals in language usage*. Cambridge University Press

¹⁷³ Yuldashev, G. (2015). O‘zbek tilida murojaat birliklarining milliy va an‘anaviy xususiyatlari. *Tilshunoslik tadqiqotlari*, 3(1), 45-60.

¹⁷⁴ Holmes, J. (2013). *An introduction to sociolinguistics* (4th ed.). Routledge.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu tadqiqotda kontrastiv tahlil usuli qo‘llanildi. Ingliz va o‘zbek tillaridagi murojaat birliklari to‘plangan va ularning lingvokulturologik hamda lingvopoetik xususiyatlari tahlil qilindi. Ma’lumotlar korpus lingvistika yondashuvi asosida tahlil qilinib, statistik va deskriptiv metodlar orqali izohlab berildi.

Tilshunoslikda murojaat shakllari pragmalingvistika va sotsiolingvistika sohalari orqali o‘rganiladi. Brown va Levinson murojaat shakllarini hurmat(politeness) nazariyasining asosiy komponenti sifatida ko‘rib chiqib, ijtimoiy mavqe va muloqot kontekstiga mos ravishda tanlanishi lozimligini ta’kidlaydi. O‘zbek tilida murojaatning turli shakllari madaniy qadriyatlarning yuksak darajada aks etishi sifatida qaraladi, ingliz tilida esa ko‘proq standartizatsiyaga e’tibor qaratilgan.

Murojaat birlashmalari — bu til orqali odamlar o‘rtasidagi muloqot jarayonida hurmat, do‘stona munosabat yoki ijtimoiy masofani ifodalashning muhim vositalaridan biridir. Ular nafaqat nutqiy muloqotning strukturaviy qismi, balki madaniy kontekst bilan bog‘liq bo‘lgan ijtimoiy belgilar hamdir. Har bir til va madaniyatda murojaat birliklarining shakllanishi va qo‘llanilishiga xos o‘ziga xos jihatlar mavjud bo‘lib, ular nutq egalarining ijtimoiy maqomi, yosh farqi, rasmiylik darajasi va muloqot kontekstiga qarab o‘zgarishi mumkin.

O‘zbek va ingliz tillarida murojaatlarning struktura va uslubiy jihatlari sezilarli farqlarga ega. O‘zbek tilida murojaatlar odatda rasmiyroq bo‘lib, aniq ifodalanadi. Masalan, “*Janob*”, “*Xonim*”, “*Ustoz*” kabi murojaatlar ko‘p ishlatiladi, shuningdek, qarama-qarshi tomonning yoshiga, kasbiga yoki ijtimoiy mavqeiga bog‘liq holda hurmat ifodalovchi so‘zlardan foydalanish muhim sanaladi. Oilaviy yoki do‘stona muhitda esa “*aka*”, “*opa*”, “*tog‘a*”, “*xola*” kabi qarindoshlikni bildiruvchi murojaatlar keng tarqalgan bo‘lib, ular hurmat va yaqinlikni anglatuvchi omillar hisoblanadi.

Ingliz tilida esa murojaatlar odatda ixcham va universal shaklda bo‘ladi. Rasmiy muloqotda “*Mr.*” (*Janob*), “*Ms.*” (*Xonim*), “*Dr.*” (*Doktor*) kabi murojaat shakllari ishlatilsa, norasmiy suhbatlarda odatda ism bilan murojaat qilish odatiy hol sanaladi. Ingliz tilida rasmiylik darajasi pasayganligi sababli, muloqotda tez-tez bevosita ismlar yoki umumiy murojaat shakllari (“*sir*”, “*madam*”, “*guys*”, “*everyone*”) ishlatiladi.

Shuningdek, murojaatlarning ijtimoiy va madaniy o‘zgaruvchanligi ham mavjud. Masalan, ingliz tilida gender neytral murojaat shakllari (“*they/them*”, “*Mx.*”) rivojlanib bormoqda, bu esa tilning zamonaviy tendensiyalar va gender tengligi masalalariga moslashuvini ko‘rsatadi. O‘zbek tilida esa an’anaviy murakkab murojaat tizimi saqlanib qolgan bo‘lib, ayniqsa kattalarga nisbatan hurmat ifodalash asosiy mezon sanaladi.

O‘zbek va ingliz tillaridagi murojaat birliklari madaniy, lingvistik va lingvopoetik jihatdan sezilarli farqlarga ega. O‘zbek tilidagi murojaatlar ijtimoiy ierarxiyaga asoslangan bo‘lib, iliqlik va hurmat ifodalash darajasi yuqori. Ingliz tilidagi murojaatlar esa rasmiy-norasmiy mezonlar asosida shakllanib, neytrallik va standartlashtirish tamoyiliga ko‘proq

asoslanadi. Ushbu farqlar har ikki tilning madaniy va kommunikativ xususiyatlarini o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

NATIJALAR

Tadqiqot natijalari murojaat birliklarining pragmatik funksiyalarini yanada chuqurroq tushunishga yordam berib, tarjimashunoslik, madaniyatshunoslik va nutq madaniyati sohalarida qo‘llanilishi mumkin. Shuningdek, ushbu tadqiqot xorijiy tillarni o‘rganishda ham muhim ahamiyatga ega bo‘lib, turli tillarning murojaat birliklarini taqqoslash orqali til o‘rganuvchilarga madaniy kontekstni yaxshiroq tushunish imkonini yaratadi.

✓ O‘zbek va ingliz tillarida murojaat birliklarining ijtimoiy-madaniy asoslari

O‘zbek tilida murojaat birliklari ko‘proq ijtimoiy ierarxiya va an‘anaviy qadriyatlarga asoslanadi. Murojaat shakllari suhbatdoshning yoshi, ijtimoiy mavqei, qarindoshlik darajasi va jamiyatdagi o‘rniga qarab farqlanadi.

Masalan, hurmat ifodalovchi "aka", "opajon", "ustoz", "domla" kabi murojaatlar keng qo‘llaniladi. Shuningdek, "bobo", "buvi", "tog‘a", "xola" kabi murojaat birliklari nafaqat qarindoshlik, balki hurmatni ifodalash vositasi sifatida ham ishlatiladi.

Ingliz tilida esa murojaat birliklari asosan rasmiy va norasmiy shakllarga bo‘linadi. Rasmiy holatlarda "Mr.", "Ms.", "Dr.", "Professor" kabi murojaatlar ishlatilsa, norasmiy suhbatlarda ismlar yoki oddiy "sir", "ma‘am" kabi umumiy murojaat shakllari qo‘llaniladi. Ingliz tilida murojaat shakllari shaxsiy yaqinlik darajasini aks ettirgan holda rasmiylik yoki norasmiylik me‘yorlariga ko‘proq bog‘liq bo‘ladi.

✓ O‘zbek va ingliz tillarida murojaat birliklarining lingvistik xususiyatlari.

O‘zbek tilida murojaat birliklari ko‘pincha affiksial morfemalar orqali differensiallashadi. Masalan, "-jon", "-aka", "-oy" qo‘shimchalari murojaat shakliga iliqlik va hurmat ifodalaydi ("opajon", "akajon", "oyijon"). Ingliz tilida esa bunday morfologik elementlar deyarli kuzatilmaydi, murojaatlar ko‘proq mustaqil birliklar sifatida qo‘llaniladi ("Mr. Smith", "Dear Professor").

Shuningdek, o‘zbek tilida murojaatlar sintaktik jihatdan ham rang-barang bo‘lib, ular ko‘pincha muloqotning hissiy fonini boyitadi.

Masalan:

"Aziz ustozim, sizning maslahatlaringiz biz uchun juda muhim."

"Opajon, bugun siz bilan uchrashish juda yoqimli bo‘ldi!"

Ingliz tilida esa murojaatlar sintaktik jihatdan qisqa va aniq shakllarga moyil bo‘ladi:

"Dear Professor, your advice is highly appreciated."

"Sir, it was a pleasure meeting you today."

✓ Lingvopoetik jihatlar

Lingvopoetika nuqtayi nazaridan, o‘zbek tilidagi murojaat birliklari ko‘pincha obrazli va emotsional tusga ega bo‘lib, ular samimiyat va iliqlikni ifodalaydi.

Masalan, "Aziz do‘stim", "Mehri daryo opajon", "Qadrli amakim" kabi murojaatlar hissiy ta‘sir doirasini kengaytiradi.

Ingliz tilida esa murojaat birliklari ko‘proq standartlashtirilgan va rasmiy tusda bo‘lib, ularda emotsionallik darajasi nisbatan past bo‘ladi. *"Dear Sir/Madam"*, *"Respected Professor"* kabi murojaatlar odatiy rasmiy yozishmalarda ishlatiladi va ular hissiy ifoda jihatidan chegaralangan bo‘ladi.

Murojaat birliklari har bir jamiyatning madaniy va ijtimoiy tuzilishiga bog‘liq bo‘lib, ular kommunikativ jarayonda suhbatdoshlar o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga solish vositasi hisoblanadi.

Shu bilan birgalikda, o‘zbek tilida murojaat birliklari asosan an‘anaviy qadriyatlar, hurmat tamoyillari va ijtimoiy ierarxiyaga asoslangan.

Masalan, o‘zbek tilida:

- **Yosh va mavqega asoslangan murojaatlar:** "aka", "opa", "bobo", "buvi", "ustoz", "domla" kabi murojaatlar keksalarga va hurmatga sazovor shaxslarga nisbatan qo‘llaniladi.
- **Oilaviy va yaqin munosabatlar:** "opajon", "akajon", "qizim", "o‘g‘lim", "jiyan" kabi murojaatlar iliqlikni ifodalaydi.
- **Rasmiy va biznes uslubida:** "Janob", "Xonim", "Muhtaram" kabi murojaatlar rasmiy yozishmalarda ishlatiladi.¹⁷⁵

Ingliz tilida murojaat shakllari ko‘proq rasmiy va norasmiy uslubga ajratiladi, lekin ijtimoiy ierarxiya unchalik keskin namoyon bo‘lmaydi:

- **Rasmiy murojaatlar:** "Mr." (Janob), "Mrs." (Xonim), "Miss" (Turmushga chiqmagan ayol), "Dr." (Fan doktori) kabi birliklar mavjud.
- **Norasmiy murojaatlar:** "Sir", "Madam" (Hurmat bilan murojaat qilish), "buddy", "mate" (do‘stona munosabatda) kabi so‘zlar qo‘llaniladi.
- **Jamiyatda hurmatni ifodalovchi murojaatlar:** Qirollik vakillari yoki harbiylarga nisbatan "Your Majesty", "Your Honor" kabi murojaatlar mavjud.

Murojaat birliklarining lingvopoetik xususiyatlari ularning obrazlilik va emotsionallik darajasi bilan bog‘liq bo‘lib, o‘zbek va ingliz tillari bu borada sezilarli farqlarga ega. O‘zbek tilida murojaatlar ko‘pincha obrazlilik kasb etadi va iliqlikni ifodalovchi unsurlar bilan boyitiladi.

Masalan:

- **"jon" affiksi orqali:** "opajon", "ukajon" (samimiylik, mehr-muhabbat ifodasi).
- **E’tirof va maqom ifodalovchi murojaatlar:** "hazrat", "ustoz", "olim".
- **Kinoya yoki hazil shaklidagi murojaatlar:** "boyvachcha", "bek" (ba’zan ijobiy yoki istehzo bilan ishlatilishi mumkin).

Ingliz tilida murojaatlar nisbatan standart va emotsionallik kamroq bo‘lsa-da, ba’zi obrazli ifodalar mavjud:

¹⁷⁵ Yuldosheva. S. (2020). O‘zbek tilida rasmiy muloqot va murojaat shakllari.

- "Sweetheart", "honey", "darling" – yaqin munosabatlarda qo‘llaniladigan iliq murojaatlar.
- "My lord", "Your Grace" – tarixiy va rasmiy nuqtai nazardan obrazlilikka ega birliklar.
- "Boss", "chief" – norasmiy lekin ko‘pincha samimiylkni ifodalovchi murojaatlar.¹⁷⁶

O‘zbek tilidagi murojaatlar ko‘proq emotsionallikka, ilqlikka va obrazlilikka ega bo‘lsa, ingliz tilidagi murojaatlar ancha rasmiy va standartlashtirilgan xususiyatga ega.

MUHOKAMA

O‘zbek va ingliz tillaridagi murojaat birliklari ijtimoiy-madaniy, grammatik va lingvopoetik jihatdan sezilarli farqlarga ega. O‘zbek tilida ular ijtimoiy ierarxiya va hurmat tamoyillariga asoslangan bo‘lib, obrazlilik va ilqlik bilan ajralib turadi. Ingliz tilida esa murojaatlar ko‘proq rasmiy va norasmiy shakllarga ajratilib, standartlashtirilgan va neytral tusga ega bo‘ladi. Ushbu farqlar har bir tilning madaniy va kommunikativ xususiyatlarini yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tilshunoslikda murojaat birliklari ijtimoiy munosabatlarni aks ettirish va kommunikativ jarayonda muhim rol o‘ynaydi. Har bir til va madaniyatda murojaat birliklari muayyan sotsiokulturniy omillar ta’sirida shakllanadi. Lingvokulturologik tadqiqotlar til va madaniyatning o‘zaro bog‘liqligini o‘rganadi. O‘zbek va ingliz tillaridagi murojaat birlashmalari madaniy kontekstda qanday ishlatilishini tahlil qilish, ularning ijtimoiy ahamiyatini aniqlashga yordam beradi.

Masalan, to‘y marosimlari bilan bog‘liq leksik birliklarni o‘rganish orqali har ikki madaniyatning an’anaviy qiymatlari va urf-odatlar haqida ma’lumot olish mumkin.

Ingliz va o‘zbek tillarida murojaat birlashmalarining lingvokulturologik va lingvopoetik tadqiqoti, bu tillarning madaniy kontekstda qanday ishlatilishini tushunishga yordam beradi. Bu sohalardagi tadqiqotlar nafaqat tilshunoslik, balki madaniyatshunoslik uchun ham muhimdir. O‘zbek tilining rivojlanishi uchun sifatli manbalar yaratish va xalqaro tajribalarni hisobga olish zarur.

XULOSA

O‘zbek va ingliz tillaridagi murojaat birliklari lingvokulturologik va lingvopoetik jihatdan sezilarli farqlarga ega. O‘zbek tilida murojaatlar ko‘proq ijtimoiy maqom va hurmatni aks ettirsa, ingliz tilida ular rasmiy va norasmiy uslublarga bo‘lingan holda qo‘llaniladi. Lingvopoetik jihatdan esa o‘zbek tilidagi murojaatlar emotsionallik va ilqlik bilan ajralib turadi, ingliz tilida esa ular odatda standart shaklda qo‘llaniladi. Ushbu farqlar til va madaniyatning o‘zaro bog‘liqligini yanada chuqurroq anglashga imkon beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Brown, P., & Levinson, S. C. (1987). Politeness: Some universals in language usage. Cambridge University Press

¹⁷⁶ Scollon, R., & Scollon, S. W. (2001). Intercultural Communication: A Discourse Approach. Blackwell.

2. Holmes, J. (2013). An introduction to sociolinguistics (4th ed.). Routledge
3. Murodova, M., & Xoldorova, H. (2023). STYLISTIC USAGE OF WORD FORMATION PATTERNS CONTENTS. Educational Research in Universal Sciences, 2(3 SPECIAL), 946–949
4. Scollon, R., & Scollon, S. W. (2001). Intercultural Communication: A Discourse Approach. Blackwell.
5. Yuldashev, G. (2015). O‘zbek tilida murojaat birliklarining milliy va an‘anaviy xususiyatlari. Tilshunoslik tadqiqotlari, 3(1), 45–60.
6. Yuldosheva. S. (2020). O‘zbek tilida rasmiy muloqot va murojaat shakilari.
7. www.dissercat.ru
8. www.ziyonet.uz